

Xorazm Ma'mun akademiyasi

Direktor



Abdullaev Ikrom Iskandarovich

Biolog, Fan doktori

mamun1000@mail.ru

(+99894) 230-8998

Bog'lanish

Manzil: 220900, Horazm v., Xiva tumani Markaz-1

Direktor: Abdullaev Ikrom Iskandarovich

Telфон: (+99894) 230-8998

Faks: (0-362) 3755143

Sayt: <http://mamun.uz>



Xorazm Ma'mun akademiyasi 1997 yil 17 noyabrda tashkil qilingan. Xorazm Ma'mun akademiyasi 17 noyabr 1997 yilda tashkil topgan. Akademiyada zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan to'rtta laboratoriya hamda Urganch davlat universiteti bilan hamkorlikda yaratilgan 7 ta kafedra filiallari mavjud. Eramizdan avvalgi 5 asrga mansub zardushtiylik ibodathona topilgan, u hozirgi kunda O'rta Osiyo hududida topilgan eng qadimgi ibodathona hisoblanmoqda. 460 yig'ma jilddan iborat Xiva xonlari arxiv xujjatlari katalogi yaratildi. "Xiva me'moriy yodgorliklari va ularning texnik holatlari" monografiyasi chop qilindi, EHM uchun "Janubiy Orolbo'yi me'moriy yodgorliklari (Ichan-Qal'a misolida) dasturi yaratildi, G'ozaning ikki navi "Niyat" va "Hurma" Xorazm viloyati sharoitlariga moslashtirildi. Akademiya bazasida UrDU ning biologiya, kimyo, tuproqshunoslik va agronomiya yo'nalishi talabalari amaliyot o'taydilar, shuningdek Akademiyada o'simliklar fiziologiyasi, noorganik kimyo kabi ixtisosliklar bo'yicha doktorantlar ilmiy ishlarini bajarmoqdalar.